

Annotation.

It is well known that the phraseology of a language the phenomenon of identity. This uniqueness is due to the fact that there are idioms image-based views of reality that shows mainly of everyday empirical, historical and spiritual experience of a language community, associated with its cultural traditions. We learn culture, national features of other nationalities through language. Because their worldview, ideology, peculiarity of intellection appear in their language. The article deals with national and cultural principles of phraseological units. This article analyzes some semantic mechanisms underlying figurative lexicalized expressions in the sub-corpus of zoonymic phraseology in Korean and Uzbek languages. It focuses on the cultural motivation of idioms, in contrast with the inverse possibility: the influence of lexicon itself on world vision and culture.

Key words: *phraseology, component, cultural, zoomorphism, zoonim, lexicalsemantic groups, character, positive, negative. zoonymic idioms, zoomorphic metaphors, zoonymy.*

Koreys tilida frazeologizmlar, zoonimlar ishtrok etgan frazeologizmlarning talqini

Frazeologizm (fazeologik birlik) – bu semantik jihatdan bog‘langan so‘z birikmalar va gaplarning umumiy nomlanishi bo‘lib, shaklan o‘xshash bo‘lgan sintaktik strukturalardan farqli ular fikrni tashkil etishda so‘zlar tanlanishi va ularning kombinatsiyasining umumiy qonuniyatlariga muvofiq amalga oshirilmaydi, balki nutqda belgilangan semantik struktura va muayyan leksik-grammatik tarkibning o‘zaro munosabati bilan aks ettiriladi¹.

Frazeologizmlar fikrni keng qamrovda, obrazli, o‘tkir ma’noli ifodalash xususiyati bilan boshqa til birliklaridan farqlanadi. Shu bilan birga, ularda qo‘shimcha ma’no va ma’no qirralarining kuchli ifodalanishi frazeologizmlarning xarakterli tomonlari hisoblanadi. Shu jihatlari bilan frazeologizmlar hozirda ko‘pgina tillarda tadqiqot ob’ektiga aylanmoqda. “Frazeologizm” tushunchasi, uning tarkibi va hajmi, milliy xususiyati, madaniy-informatsion funksiyasi va shu kabi boshqa xususiyatlari hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Koreys tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganish XX asrning boshlarida boshlanib, tadqiqotlar ko‘lami va natijalari bosqichsma-bosqich rivojlana borgan. Frazeologizmlar ustida olib borilgan tadqiqotlar olti davrga bo‘lingan holda qarab chiqiladi.² Har bir davrda koreys tili frazeologiyasining muayyan masalalari ko‘tarilib, ular tilshunoslar tomonidan har tomonlama o‘rganilib chiqilgan. Mavjud va hal qilinishi lozim bo‘lgan muammo va masalalar ustida tadqiqotlar olib borishgan.

Birinchi davr (1910 yildan 1960 yilgacha)da asosan frazeologizmlarni to‘plash bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilgan. Cho In Ing, No Su Ryon³, Li Hun Jong⁴, Kim Mun Chang⁵ kabi olimlar

¹ Большой энциклопедический словарь. Языкознание. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. С. 559.

² 문금현. 국어의 관용 표현 연구. 서울: 태학사. 1999. 7 p.

³ 노수련. 언어 기구에 대하여: 관용구와 어법에 대한 고찰 // 정음 16. 조선어학연구회, 1936. - pp. 7-13.

⁴ 이훈중. 관용구(慣用句)와 그 배후(背後) 민담(民譚) // 국어문학 24. 국어국문학회, 1961. - pp. 29-37.

⁵ 김문창. 국어의 의미론적 유연성 연구 // 낙선문학 제 5 호. 낙선어문학회, 1966

bu davrning namoyondalari sanalishadi. Bu davrdagi tadqiqotlarda sof frazeologik birliklar haqida tushuncha mavjud bo'lgan bo'lsa ham, lekin ushbu birliklarning boshqa o'xshash kategoriyalar (ayniqsa maqollar) bilan farqi aniq tushuntirilib o'tilmagan. Shuning uchun frazeologiya sohasidagi tushunchalar va frazeologik birliklarning xususiyatlarini belgilash, qilinishi lozim bo'lgan eng muhim vazifalar hisoblangan.

Ikkinchi davr (1970 yillar)da frazeologizmlarning nazariy asoslarini ishlab chiqish bilan bog'liq tadqiqotlar asosiy o'rin tutadi. Bunday tadqiqotlarda Kim Jong Tek⁶, Hvang Hi Yong⁷, Son Nak Pomlarning xizmatlari kattadir. Bu davrda birinchi davrga nisbatan ancha siljishlar bo'lib, frazeologizmlarning tizimli tadqiqoti asta-sekin boshlangan. Frazeologik birlik tushunchasining normalariga yanada aniqlik kiritilgan.

Uchinchi davr (1980 yillarning birinchi yarmi)da frazeologik birliklarning nazariy asoslarini yanada mustahkamlash uchun tadqiqotlar izchil olib borilgan. Lim Gyong Sun, Li Yong Hi⁸, Kim In Han, Li Tek Hi, Cho Byong Te⁹, Chong Ok Ju, Pak Jin Sular¹⁰ bu davrning yetuk namoyondalari hisoblanishadi. Bu davrni, aniqrog'i, frazeologizmlar bilan boshqa kategoriyalarni tasniflash muammosi va tuzilishiga qarab guruhlash masalasi ko'tarilgan davr deb ta'kidlash mumkin.

To'rtinchi davr (1980 yillarning ikkinchi yarmi)da Shim Je Gi¹¹, An Gyong Hva¹², Chang Gyong Hve va boshqalar semantik va pragmatik jihatdan frazeologizmlar ustida ko'p tadqiqotlar olib borishgan. Bu davrdagi tadqiqotlar semantik va pragmatik nuqtai nazardan hamda sinxronik qarashlar orqali amalga oshirilganligi bilan ahamiyatga molik. Lekin mavjud kategoriyalar hali ham avvalgidek, aniq tarzda belgilanmagan va frazeologik guruhlarning normasi ishlab chiqilmagan holatida bo'lgan.

Beshinchi davr (1990 yillarning birinchi yarmi)da frazeologiya to'g'risidagi turli nazariyalar va qarashlarni bir tizimga solish borasida ishlar qilingan. Bu borada Kang Vi Gyu¹³, Kim Gvang He, Kim Mun Chang, Chve Kyong Bong¹⁴, Li Jong Chol, Hong Je Song larning ishlarini alohida ta'kidlash lozim.

Oltinchi davr (1990 yillar o'rtasi)da frazeologiya to'g'risidagi nazariyalar va tadqiqotlarni qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq izlanishlar olib borilgan. Kim Ok Pun, Mun Jong Son, Yu Sing Guk, Shin Hyon Suk, Hvang Su Mi, Chang Se Gyong va Chang Gyong Hi, Yang Yong Hi, Li Sang Oklar bu davrning vakillari hisoblanishadi. Umuman bu davrni, frazeologiya sohasida qilingan ishlarni qaytadan chuqurroq tahlil qilib chiqish davri deb atash mumkin.

Zamonaviy koreys tilshunosligida frazeologizm tushunchasini ifodalashda asosan “관용어” atamasi qo'llanadi. Bu atama frazeologizmlarga nisbatan qo'llanadigan boshqa atamalardan ko'ra frazeologizm tushunchasiga ancha mos kelganligi bois mavjud tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Tilshunos Yun Hi Suga ko'ra, “관용어” atamasi “o'ziga xoslik”, “o'ziga xos ifoda” kabi ma'nolarni ifodalovchi lotincha “idioma” atamasiga to'la muvofiq keladi¹⁵. Bugungacha bo'lgan tadqiqotlarda frazeologizmlarga nisbatan turli atamalar ishlatilib kelingan. Masalan, No Su Ryon (1936) va Li Hun Jong (1961) “관용구”, Kim Jong Tek (1971), Im Gyong Su (1979, 1980), Li Yong Hve (1982), Pak Yong Sun (1985) va Pak Jin Su (1985)lar “관용어”, Kim Mun Chang (1974,

⁶ 김종택. 이디엄 연구. 어문학 통권 제 25 호. 서울: 한국 어문학회, 1971. - pp. 97-112.

⁷ 황희영. 한국 관용어 연구 // 성곡논총 9. 선곡 학술문화 재단, 1978. - pp.65-166.

⁸ 이영희. 국어의 관용적 표현과 의미의 다의화에 관한 연구// 어문논집 9. 서울: 중앙대학교, 1982.

⁹ 조병태. 영어 관용구의 해체 현상에 관한 연구// 영학논집 7 집. 서울: 서울대 영문과, 1984. - pp.103-122.

¹⁰ 박진수. 국어 관용어 연구. 경북대 석사 학위 논문. 대구: 경북대학교, 1985. - 95 p.

¹¹ 심재기. 한국어 관용 표현의 화용론적 연구. 관악어문연구 11. 서울: 서울대 국문과, 1986. - pp. 27-54.

¹² 안경화. 한국어 속어의 유형에 대한 분석적 연구. 서울대 석사 학위 논문. 서울: 서울대학교, 1987. - 90 p.

¹³ 강위규. 관용 표현의 개념과 성립 요건// 한글 209 호. 서울: 한글학회, 1990. - pp.141-162.

¹⁴ 최경봉. 국어 관용어 연구. 고려대 석사 학위 논문. 서울: 고려대학교, 1993. - 100 p.

¹⁵ 윤희수. 관용어의 고정된 어순 분석 // 논문집 10. 금오 공과대학, 1989. - 11 p

1980), Shim Je Gi (1986), Han Chong Gil (1986) va An Gyong Hvalar (1987) “숙어”, Hvang Hi Yong (1978) “익힘말”, Kim Gyu Son (1978) “관용 어구”, Kang Kvi Gyu (1990) “관용 표현”, Kim He Suk (1993) “익은말” atamalarini qoʻllaganlar. Frazеologik birlik tushunchasini esa “관용 표현” atamasi ifodalaydi.

Keyingi yillarda frazeologiya sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida frazeologik birliklar til leksik qatlamining katta bir qismi sifatida qayd qilindi. Chunki mazkur qatlamning tilda miqdor jihatidan ham, maʼnodorlik jihatidan ham juda keng ekanligi eʼtiborga molikdir. Jamiyatdagi munosabatlarni, hodisa va holatlarni soddaroq, oydinroq va obrazliroq ifodalash maqsadida frazeologik birliklardan tabiatdagi oʻz xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli narsalar, jumladan, hayvonlar obrazidan ustalik bilan foydalanilgan.

Barcha tillarning frazeologik fondida hayvon obrazlari bilan bogʻliq boʻlgan frazeologik birliklar alohida oʻrin tutadi. Bu birliklar orqali majoziy maʼnoda insonning harakteri va tashqi koʻrinishi, shu mamlakat madaniyati va uning oʻziga xosliklari tasvirlanadi¹⁶. Tarkibida zoonim komponent ishtirok etgan frazeologik birliklarning rivojlanishi inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlariga borib taqaladi. Mazkur munosabatlar koʻp qirrali boʻlib, ular turfa shakllarda namoyon boʻladi. Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xoʻjaligi, sanoat, sport, ilm va h.k. hayvonlar bilan bogʻliqdir.

Zoonim “zoo” hayvon va yunoncha “onyma” – nom, ism soʻzlaridan olingan boʻlib, hayvon nomlari bilan bogʻliq soʻzlardir.¹⁷ Turli tillardagi frazeologik birliklarda hayvon obrazlari orqali nafaqat maʼnoning koʻchishi tizimini oʻrganish balki, nimaga aynan shu hayvon obrazi mana shu tilda shu ifoda uchun qoʻllanilishini hamda shu mamlakat madaniyatini ham bilib olish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda tarkibida hayvon nomlari kelgan iboralarni ifodalash uchun zoofrazeologizmlar, zookomponentli frazeologizmlar, zoonim komponentli frazeologizmlar, zoomorfizmlar, zoonimli frazeologizmlar, shuningdek, animalistik frazeologizmlar singari terminlardan foydalaniladi. Zoofrazeologizmlar tarkibida hayvon nomlari qatnashgan va aksariyat holatda ularning xatti-harakatlarini ifodalaydigan iboralaridir. Til frazeologik qatlamining aksariyatini zoonim komponentli frazeologizmlar tashkil qiladi. Zoonim komponentli frazeologik birliklar nutqda faolligi jihatidan somatik frazeologizmlardan keyingi oʻrinda keladi.

Turli tillarda zoonim soʻzlarni oʻrganish, ularni qiyoslashdan boshlangan tadqiqotlar keyinchalik frazeologiyaga ham koʻchdi. Natijada tarkibida hayvon nomlari boʻlgan frazeologizmlarning struktural - semantik va grammatik jihatlari alohida oʻrganila boshlandi. Zoonimik komponentli frazeologizmlar koʻp oʻrganilmagan boʻlsa-da, ular oʻzining asl maʼnosi bilan eʼtiborni tortadi. Zoonimik komponentli frazeologizmlar frazeologizmlar orasida muhim ahamiyat kasb etadi va ular frazeologik birliklarning strukturasida katta oʻrin egallaydi. Frazеologizmlar tarkibida zoonimlar bilan ifodalanuvchi leksemalarning borligi muayyan frazeologizmning ularga munosabatini ifodalashini koʻrsatadi. Odatda, har bir hayvon, hasharot yoki parranda ayrim oʻziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, chumoli va asalari mehnatsevarlik ramzi boʻlsa, sher dovyuraklik, quyon esa ehtiyotkorlik va qoʻrqolikni anglatadi.

Maʼlumki, xalq ogʻzaki ijodida frazeologik birliklardan ayrim holatlarni, voqealarni taʼsirchan va jozibali ifodalash maqsadida foydalanadilar. Ayniqsa, zoonim komponentli frazeologik birliklar xalq orasida keng qoʻllaniladi. Tilshunoslikda zoonimlarni ifodalovchi leksika qushlar, hayvonlar, baliqlar, sudralib yuruvchilar va hashorotlar nomlari kabi alohida guruhlariga boʻlinadi.

Tarixiy, geografik va ijtimoiy omillar taʼsirida rivojlanayotgan “inson – hayvonot dunyosi” munosabati oʻz navbatida tilga ham taʼsir koʻrsatadi. Shuni taʼkidlash kerakki, tilning leksik

¹⁶ Proverbs And Saying With Zoonym-Component In The System Of Language And Linguocultural Knowledge. Omer Bicer

¹⁷ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildlik. 2-jild. - Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –B.159.

fondidagi qator guruhlarining ichida faqat antroponimlar va zoonimlarga jonli mavjudotni ifodalashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, zoonim komponentli iboralarga ham antroposentrik xususiyat xos deyish mumkin. Binobarin, ular zoonimlarning o'zidagi lingvistik xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda zoonim komponentli iboralarni o'rganish o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Zoofrazeologizmlar tarkibida uy hayvonlari: it, mushuk, qo'y, ot, ho'kiz, sigir, echki, tuya, tovuq; yovvoyi hayvonlar: tulki, quyon, yo'lbars, ayiq, bo'ri, sher, to'ng'iz; sudralib yuruvchilar: ilon, toshbaqa; kemiruvchilar: sichqon, olmaxon; qushlar: chumchuq, qarg'a, bulbul, bedana, mayna, g'oz, o'rdak, tovus; suvda yashovchilar: baliq, qurbaqa; hasharotlar: pashsha, chivin, bit, burga, ari va h.k. zoonimlar ishtirok etadi.

Ko'pincha zoonimik leksemalar asl ma'nosida kelganda, o'ziga xos chegaraga ega bo'ladi. Ko'chma ma'noda esa, emotsional obrazlilikni o'zida namoyon etadi va og'zaki nutqda faol qo'llanadi hamda badiiy adabiyotda ham tilga obrazlilik, ekspressivlik bag'ishlaydi.

Tilshunos olim A. Omonturdiyev o'z ilmiy tadqiqotida zoomorfizmlar to'g'risida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan: "Ta'kidlash kerakki, frazeologik birliklarning shakllanishiga asos bo'lgan hayvonlar nomi (ot, tuya, ho'kiz, qo'y, qo'chqor, arslon, sher, yo'lbars kabi) ularning xususiyatlari orqali buyuklik, adolat, kuch-qudrat, sadoqat, mardlik, tantilik yoki, aksincha, eshak, tulki, it, echki kabi nomlar va ularning xususiyatlari orqali nomardlik, pastkashlik, noshudlik, aql-farosatsizlik, yolg'onchilik, noodamiylik kabi salbiy fazilatlar ramziy evfemik tarzda o'z aksini topgan"¹⁸.

Zoonimli frazeologizmlar o'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab tilshunoslik fanida zoomorfizmlar deb atala boshlandi. Zoomorfizmlar har bir millat tilida, lug'at boyligida o'ziga xos qatlamni tashkil qilib, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, muayyan tildagi milliy ruhiyatni, milliy koloritni, jamiyatning nuqson va fazilatlarini o'quvchiga aniqroq ochib berishga xizmat qiladi.

Tarkibida zoonimik komponent bo'lgan frazeologizmlarning hosil bo'lishida hayvon, hasharot yoki qushning biror alomatiga mos keluvchi semantik va sintaktik jihatdan bog'langan boshqa so'z-komponent bilan valentlik aloqaga kiradi. Zoonimik komponent o'zining avvalgi ma'nosidagi biror belgi yoki xususiyatni saqlab qoladi, lekin o'z ma'nosini yo'qotadi. U avval bir ma'noga ega bo'lgan frazeologizm bo'lsa, keyincha yana boshqa bir ma'no kasb etadi, chunki frazeologizm inson miyasida boshqa bir narsa yoki xususiyat bilan bog'lanadi. Natijada frazeologizm ko'p ma'noli bo'lib qoladi.

Zoomorfizmlar masalasini M. Zorraquino, A. Kunin, M. Cheremesina, E. Kasitadze, E. Gutman, G. Hakimova, Z. Xolmanova kabi xorij va o'zbek tilshunoslari o'z tadqiqotlarida ko'rib chiqqanlar. Shu bilan birga zoonim komponentli frazeologizmlar N.A.Kindrya, Y.R. Malafeyeva, D.M. Mardanova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida qiyosiy tilshunoslik va lingvokulturologik jihatdan tadqiq etilgan¹⁹.

Bugungi kunga qadar zoonimlar ishtirokidagi frazeologizmlar mavzusida Koreyada bir necha tadqiqotlar olib borilgan. Bunday tadqiqotlarga Chxve Yong Suning 2002 – yil Yonsei universitetida 동물 속담과 관용어의 의미 학습²⁰ mavzusidagi tadqiqot ishi, Tugjsengel'send Ayulning 2014 – yil Changvon universitetida 한국어와 몽골어의 동물 관련 관용 표현 비교 연구²¹ mavzusidagi tadqiqot ishi, Kim Dong Guk va Li Sang Ryullarni birgalikda 2015 – yilda Yonsei universitetida 외국인 학습자를 위한 한국어 관용표현의 교육방안 연구 - 동물명이

¹⁸ A. Omonturdiyev. Chorvador nutqida uy-ro'zg'or buyumlari nomi va maqollar evfemikasi. Termiz, 2007, 3-bet.

¹⁹ Киндря Н.А. Английские и русские фразеологизмы с компонентом-зоонимом в свете истории культуры. Автореф. канд. филол. наук. –М., 2005; Малафеева Е.Р. Семантическая структура фразеологизмов с компонентом-зоонимом в современном русском литературном языке. Автореф. канд. филол. наук. –Челябинск, 1989; Марданова Д. М. Сопоставительный анализ фразеологических зоонимов в английском и турецком языках. Автореф. канд. филол. наук. –Казань, 1997.

²⁰ 동물 속담과 관용어의 의미 학습 = (The) analysis of implicit meanings of proverbs and idioms 최용수, 연세대학교 교육대학원, [2002] [국내석사]

²¹ 한국어와 몽골어의 동물 관련 관용 표현 비교 연구 특즈생게 첸드야요시, 창원대학교, [2014] [국내석사]

포함된 관용표현을 중심으로²²olib borgan tadqiqotlari, Kim Jung Aning ‘동물’명 관용 표현에 나타난 개념적 은유 양상²³ mavzusidagi tadqiqot ishlarini ko’rsatishimiz mumkin.

Chxve Yong Sun, Kim Dong Guk va Li Sang Ryullarni o’z tadqiqotlarida hayvon nomlari bilan bog’liq frazeologizm va maqollarni o’ziga xos xususiyatlari hamda faqatgina Koreyada uchratish mumkin bo’lgan zoonimik frazeologizmlarni tadqiq qilishgan, shu bilan birga frazeologizmlarni Koreya tarixi, madaniyati bilan bog’liq holda o’rganish va ularni chet el talabalariga o’qitishda qanday usullardan foydalanish kerakligi haqida batafsil ma’lumot berib o’tishgan. Tugjsengeltsend Ayulning tadqiqotida esa koreys va mongol tillaridagi zoonimlar ishtrok etgan frazeologizmlarni qiyoslaganini va ularning kelib chiqishida xalq og’zaki ijodining o’rni haqida so’z yuritilgan. Kim Jung Aning ‘동물’명 관용 표현에 나타난 개념적 은유 양상 mavzusidagi ishida koreys frazeologiyasida hayvon konsepsiyasi hamda zoonimlar ishtrok etgan frazeologizmlar orqali insonning harakteri, uning tashqi ko’rinishi, aqliy salohiyati, xulq – atvorini ko’rsatish haqida keng yoritilgan.

Koreys tilining o’ziga xos jihati uning frazeologik birliklarga nihoyatda boyligidir. Koreys tilidagi frazeologik birliklarning lug’aviy ma’nosi uzoq o’tmishga borib taqaladi, bu ko’proq xalqning turmush tarzi va urf odatlariga ham qisman bog’liq.

Frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi, inson xulq-atvorini ifodalovchi zoonimlar semantik markaz hisoblanadi, shu sabab u metaforik ma’no kasb etadi va bu narsa iborani yanada obrazli qiladi.

Masalan, koreys tilida 개 새끼 한 마리 얼씬하지 않다, 용을 날다, 개미 새끼 하나 볼 수 없다, 게 눈 감추듯, 소 잡아먹다, o’zbek tilida tulkidek ayyor, eshakdek qaysar, quyondek qo’rqoq, tovuqdek ahmoq, otdek yeydigan, cho’chqadek iflos, eshakdek ishlamoq, ilonday chaqib oluvchi, qo’yindagi ilon kabi frazeologik iboralar lug’at tarkibining o’ziga xos milliyligini aks ettiradi.

Ko’pchilik hayvon nomlari bilan bog’liq bo’lgan har ikkala tildagi frazeologik birliklar til manzarasida hayvon va parrandalarning harakat, faoliyati, qiliqlarini kuzatish natijasida paydo bo’lgan. Hayvonlarda bo’lgan har xil munosabat, inson tilida ularni qanday nomlash har bir xalqning metaforik ko’chma ma’noni qo’llashida yaqqol ko’zga tashlanadi.

Semantik jihatdan hayvonlarga yo’naltirilgan, ammo metaforik tarzda insonni nazarda tutuvchi frazeologik iboralar har ikki tilda ham muhim rolga ega.

Zoofrazeologizmlarning ma’nosi bilan tarkibidagi so’zlarining ma’nolari orasidagi munosabatga ko’ra ikki turga ajratish mumkin:

1. Frazeologik chatishmalar. Bunday frazeologik birliklarning umumiy ma’nosi ularni tashkil qilgan komponent so’zlar ma’nosiga umuman mos kelmaydi. Masalan, o’zbek tilidagi dimog’idan eshak qurti yog’moq “o’zini boshqalardan yuqori tutmoq” ma’nosini anglatadi. Bu yerda eshak yoki qurt haqida gap borayotgani yo’q. Yoki ammamning buzog’i frazeologik birligida amma va buzoq so’zlarining lug’aviy ma’nosi umuman unutilib, iborada “landavur, lapashang” ma’nosini yuzaga chiqqan.

2. Frazeologik butunlik. Bu guruhdagi iboralar frazeologik birliklar ham deb nomlanib, ko’pchilikni tashkil qiladi. Ularning ma’nosi tarkibidagi so’zlarining ma’nosi asosida izohlanadi. Masalan, koreys tilida 닭 대가리가, o’zbek tilida tovuq miya; eshak miya “ahmoq, esi past”, yoki

²²외국인 학습자를 위한 한국어 관용표현의 교육방안 연구 - 동물명이 포함된 관용표현을 중심으로 - 김동국·이상률 (영산대학교) 2015

²³‘동물’명 관용 표현에 나타난 개념적 은유 양상 = The Conceptualization of Animals in Korean Idiomatic Expressions 김정아(Kim, Jung-a) (國際言語文學, Vol.32 No.- [2015])[KCI 등재]

qari tulki “tajribali, ishiga puxta” iboralarining komponentlari qisman yoki to‘liq ibora tashkil etgan umumiy ma’noni ifodalaydi.

Koreys xalqining milliy madaniyati, o‘ziga xos mentaliteti zoonimlar ishtrok etgan frazeologiyalarda ham o‘z aksini topadi.

고양이 낮작[이마 빼기]만 하다 – so’zma – so’z tarjimasi - mushukning yuzidek keladi bo’lib, juda ham tor degan ma’noda qo’llaniladi.

Misol: 방구석이 고양이 낮작만 하구나.

Xonang mushukning yuzidek kelarkan –a .

고양이 소리- tarjimasi mushuk ovozi bo’lib, xushomad, xushomadgo’ylik qilmoq degan ma’nolarni anglatadi.

Misol: 듣기 좋은 고양이 소리나 하는 인간은 상종할 필요가 없다.

Quloqqa yoqimli mushuk ovozini (xushomad) qiladigan odam bilan vaqtimni bekorga sarflamayman.

고양이와 개 – tarjimasi mushuk va it. Bu ibora xuddi o‘zbek tilidagi it mushuk bo’lmoq iborasiga mos keladi.

Misol: 두 사람은 고양이와 개의 관계이다.

Bu ikkisi bir – biri bilan it mushukdir.

개 발에 땀 나다 – so’zma so’z tarjimasi – itning oyog’idan ter chiqmoq, ma’nosi juda ham qiyin bo’lgan ishni amalga oshirish uchun yelib – yugurish. O‘zbek tilidagi eshakdek ishlamoq iborasiga to’g’ri keladi.

Misol: 개 발에 땀 나도록 일하여 목표를 이루었다.

Itning oyog’idan ter chiqquncha ishlab o‘z maqsadimga erishdim.

개 새끼 한 마리 얼씬하지 않다 – so’zma – so’z tarjimasi - bir dona kuchuk ham yaqinlashmaydi, hech kim va hech narsa yaqinlashmaydigan hamda juda ham tinch ma’nosida qo’llaniladi.

Misol: 그 마을은 지난 폭격으로 인해 개 새끼 한 마리 얼씬하지 않는 폐허가 되어 버렸다.

Bu qishloq oldingi safar portlash sababli xatto it ham yaqinlashmaydigan vayronaga aylanib qoldi.

개 잡듯 – to’g’ridan – to’g’ri tarjimasi itni tutgandek. Xuddi itni tutayotganda uni ushlab urib yuborishdagi harakatni ifodalayotganda qo’llaniladi.

Misol: 내가 개 잡듯 그놈을 패주었지요.

Men uni itni tutgandek urdim.

개소리하다 - so’zma - so’z tarjimasi – akillamoq yoki itni gapini qilmoq bo’lib, keraksiz , o’rinsiz gaplarni gapirmoq ma’nosida qo’llaniladi.

Misol: 쓸데없이 개소리하지 마라.

Bekordan bekorga akillama. Keraksiz gaplarini boshlama.

Tarkibida «it» zoonimi bo’lgan frazeologik birliklar o‘zbek tilida ham juda ko‘p.

Ular ikki komponentli holatdan toki bir gapga teng keluvchi ko'p komponentli iboralargacha borib yetadi: it fe'l; it urug'; it tinsa ham, u tinmaydi; it ham dumi bilan atrofini tozalab o'tiradi kabilar.

Koreys frazeologizmlarida 용- ajdarho obrazining qo'llanilishi ham uning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Koreys xalqi ajdarholarni daryo va dengizlarda yashashiga ishonishadi. Undagi hayot esa hech qachon to'xtamasligidan dalolat beradi. Ajdarhoning to'lqinli harakati haqiqiy hayotning, tabiatning, taqdirlarning keskin to'lqinlarini aks ettirib unga qarshi harakat kilishning umuman imkoni yo'qligini ramziy ma'noda ifodalanishidir. Koreys tilidan suv kuchining harakatlanishi "Tornado" deb atalishi ham bejizga emas, bu harakat ajdarhoning tutun chiqarayotgan nafasi deb qaralgan. Ajdarhoning vafoti esa faqatgina osmonga uchib ketishi bilan emas, balki samo yo'llarini birlashtirib turishi bilan ifodalanagan. Koreys obrazlarida ajdarho yaltiragan teriga ega bo'lgan katta ilon shaklida tasvirlanadi. Uning korinishi yovvoyi hayvonlarga o'xshab ketadigan, shoxli, to'rt oyoqqa ega bo'lib, o'tkir tirnoqli qilib tasvirlanadi. Og'zidan olov chiqadigan ajdarho juda katta kuch qudratga egadir. Jahldor ajdarho qadimdan og'zida yoki tirnoqlari orasida bir katta qizil munchoqni tutib turgan holatda tasvirlanadi. Ertaklarda tasvirlangan bu qizil munchoqni izlab topgan qahramonlar tinch va totuv hayotga, shuningdek, mustahkam hokimiyatga ega bo'lishni ifodalaydi. 용- ajdarho obrazi bilan bog'liq frazeologizmlar:

용(이) 되다 - soz'ma so'z tarjimasi ajdarhoga aylanmoq bo'lib, hech o'zgarmayotgan narsalar birdaginga juda yaxshi bo'lib ketishi ma'nosida qo'llaniladi.

Misol: 어렵게 살더니 자식 덕분에 용 됐구먼.

Qiyinalib yashagan edi, farzandi tufayli ajdarhoga aylandi.

용을 낳다 – to'gridan to'g'ri tarjimasi ajdarhoni dunyoga keltirmoq. Buyuk insonni dunyoga keltirmoq ma'nosida qo'llaniladi.

Misol: 우리 아들이 사람들에게 존경받는 대학 교수가 되다니, 내가 아들을 낳은 것이 아니라 용을 낳았 구먼.

Mening o'g'lim oily o'quv yurtida ustoz bo'lib ishlab juda katta hurmat qozonmoqda. Men dunyoga o'g'il emas, ajdarhoni keltiribmanda!!!

Bundan tashqari koreys tilida dengiz hayvonlari ishtrok etgan frazeologizmlar ham juda ko'p uchraydi.

물고기(의) 밥이되다 – to'g'ridan to'g'ri tarjimasi – baliqning ovqatiga aylanmoq yoki baliqqa yem bo'lmoq. Suvga yiqilib o'lmoq ma'nosini bildiradi.

Misol: 멀쩡하게 나갔던 사람이 물고기밥이되었더니 믿어지지않아요.

Soppa – sog' chiqib ketgan odam suvga yiqilib o'lganiga ishona olmayapman.

게 눈 감추듯 – so'zma – so'z tarjimasi qisqichbaqa ko'zini yashirayotgandek bo'lib, ma'nosi ovqatni shosha – pisha yeb, idishni top toza qilib qo'yish.

Misol: 그는 눈 깜짝할 사이에 그 많은 음식을 게 눈 감추듯 다 먹어 버렸다.

U ko'z ochib yumguncha juda ko'p ovqatni qisqichbaqa ko'zini yashirgandek yeb tashladi.

고래(를) 잡다 – kit tutmoq. Sunnat qilish ma'nosida qo'llaniladi.

Misol: 너 걸음걸이가 왜 그래? 어제 고래 잡았어

Sen nega unaqa yuryapsan? Nima bo'ldi? Kecha kit tutdim.

Zoonimlar turli xil ma'no konnotatsiyasiga ega bo'lganligi uchun ko'chma ma'noda qiyinchiliksiz qo'llaniladi. Shuning uchun tilda ulardan tarkib topgan frazeologizmlar ko'p uchraydi. Quyida koreys tili og'zaki nutqida keng qo'llaniladigan frazeologik birliklar keltirilgan:

개미 새끼 하나 볼 수 없다 – tarjimasi bir dona chumoliham ko'rinmayapti. Ma'nosi hech kim va hech narsani topa olmaslik.

Misol: 우리가 현장에 도착했을 때는 이미 다 달아나고 개미 새끼 하나 볼 수 없었다.

Biz jinoyat joyiga yetib borganimizda allaqachon hammasi qochib bo'lgan edi, bir dona chumolini ham ko'ra olmadik.

닭 발 그리듯 – tarjimasi tovuq oyog'ini chizmoq. Yozayotganda yoki rasm chizganda juda shoshilib, g'alati, xunuk yozish va chizish ma'nolarida qo'llaniladi.

Misol: 그 아이는 엄마에게 쫓르르 달려가더 니 닭 발 그리듯 그린 엉성한 그림을 자랑스럽게 펼쳐 보였다.

U bola oyisining oldiga yugurib kelib xuddi tovuq oyog'ida chizilgandek rasmni maqtanib ko'rsatdi.

닭 싸우듯 – tarjimasi tovuq urushgandek bo'lib, bu o'zbek tilidagi birovning ustidan mag'zava ag'darish iborasiga mos keladi.

Misol: 그는 언제나 이 사람 저 사람 집적거리며 닭 싸우듯 싸우고 다닌다.

U har doim odamlar bilan tovuq urushgandek urushib yuradi.

쥐 잡듯 – tarjimasi sichqonni tutib olgandek bo'lib, hech qanday harakat qila olmaydigan qilib tutib olish degan ma'noni anglatadi.

Misol: 아주 쥐 잡듯 잡는구나 거지같은 것들!!!!

Senlar xuddi sichqonni tutgandek ushlab olarkansanlarda gadoylar!!!!

쥐 죽은 듯 – so'zma – so'z tarjimasi sichqon o'lgandek bo'lib, juda ham tinch holatga nisbatan qo'llaniladigan iboradir. Bu o'zbek tilidagi suv quygandek jim jit iborasiga to'g'ri keladi.

Misol: 사방은 쥐 죽은 듯 고요하다.

Atrof xuddi sichqon o'lgandek jim jit.

쥐도 새도 모르게 – tarjimasi sichqonga ham qushga ham bildirmasdan bo'lib, hech kimga bildirmasdan ish qilish degan ma'noni anglatadi.

Misol: 용의자는 결정적인 증거를 쥐도 새도 모르게 없앴다.

Gumondor tergov dalilini sichqinga ham qushga ham bildirmasn yo'q qilib yubordi.

소 잡아먹다 – to'g'ridan to'g'ri tarjimasi – qoramol tutib yeb qo'yadi bo'lib, ma'nosi juda mug'ombirlik bilan ish qilish.

Misol: 그 친구는 소 잡아먹고도 남을 사람이지.

U odamni qoramol tutib yesa ham suvdan quruq chiqadi.

소 먹듯 하다 = 소같이 먹다 – tarjimasi mol yegandek yoki molga o'xshab ovqatlanmoq bo'lib, juda ham ko'p ovqat yeyish ma'nosida qo'llaniladi.

Misol: 점심때 소 먹듯 했더니 사람들이 아침 안 먹었느냐고 묻는다.

Tushlik paytida mol yegandek ovqatlanganimni ko'rgan odamlar nonushta qilmadingmi deb so'rashdi.

소(가) 뜨물 켜듯이 – so'zma – so'z tarjimasi mol suvga tashlangandek bo'lib, suvni yoki biror bir ichimlikni bir ko'tarishda juda ko'p ichish ma'nosida qo'llaniladi.

Misol: 소 뜨물 켜듯이 물 마시는 걸 보니 무척 목이 말랐었구나.

Mol suvga tashlangandek suv ichishiga qaraganda juda chanqabsan – a.

소(가) 푸주에 들어가듯 - tarjimasi molni tutib olib kirgandek bo'lib, biror joyga borishni xohlamaslik yoki biror ishni qilishni xohlamaslik ma'nosida keng qo'llaniladi.

Misol: 그 아이는 소가 푸주에 들어가듯 엄마의 손에 끌려 목욕탕에 갔다.

U bola molni tutib olib kirgandek onasining qo'lga osilgancha xammomga kirib ketdi.

돼지 먹파는 소리 – to'g'ridan – to'g'ri tarjimasi cho'chqaning ingrashi bo'lib, juda ham asabga tegadigan ovoz va gaplar degan ma'noni anglatadi.

Misol: 그렇게 돼지 먹파는 소리를 해 대면서 무슨 합창 대회에 나간다는 게냐?

Shunaqa cho'chqaga o'xshab ingrab yuradigan bo'lsang qanday qilib konkursa qatnashmoqchisan?

말을 바꾸어 타다 – so'zma – so'z tarjimasi otni almashtirib minish bo'lib, odam, ish va boshqa shunga o'xshash narsalarni almashtirish yoki o'zgartirish degan ma'noni bildiradi.

Misol: 그는 한번 시작한 일은 마무리될 때까지 **말을 바꾸어 타지** 않는다.

U bir boshlagan ishini oxirigacha yakunlaguniga qadar otni almashtirib minmaydi.

그가 예편하면 말을 바꾸어 탈 거예요. 절대로 그는 당신을 믿지 않아요.²⁴

U ajrashsa otni almashtirib minishga majbur bo'laman. U senga ishonmaydi.

뱀 기여간[지나간] 자리 – tarjimasi ilon o'tgan joy bo'lib, asosan Shimoliy Koreyada keng qo'llaniladigan iboradir. Yoqimsiz ma'nosini bildiradi.

Misol: 그때마다 도현은 마치 발등으로 **뱀이 지나간** 것처럼 징그럽고 불쾌했다.

O'sha paytda Dohyon oyog'idan iloon o'tgandek jahli chiqar edi.

뱀을 보다[잡다] – so'zma – so'z tarjimasi ilonni ko'rmoq(tutmoq) bo'lib, biror ishni noto'g'ri qilib qo'yib muvaffaqiyatsizlikka uchramoq ma'nosida qo'llaniladi.

Misol: 뱀을 본 것은 이들 인텔리다²⁵.

Ilonni ko'rish bu (ularning muvaffaqiyatsizlikka uchragani) ularning zehnidir.

²⁴황석영, 《무기의 그늘》(1985년)

²⁵《채만식, 레디메이드 인생》

코끼리 비스킷 – tarjimasi fil pechenyasi, ma’nosi juda ham oz miqdorni bildiradi.

Misol: 그에게는 과자 한 봉지도 코끼리 비스킷이다.

Unga bir halta shirinlik fil pechenyasidir.

참새 물 먹듯 – so’zma – so’z tarjimasi chumchuq suv ichgandek bo’lib, ovqatni ozginadan lekin bir necha marta yeyish degan ma’noni anglatadi.

O’zbek tili og’zaki nutqida zoonimlar bilan yasaluvchi ko’p uchraydigan frazeologizmlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Ho’kizni shoxidan ushlamoq, it-mushuk bo’lmoq, mushuk-sichqon o’ynamoq, pashshadan fil yasamoq, bir o’q bilan ikki quyonni urmoq, qarg’aday qaqillamoq, pashsha qo’rimoq, it sug’ormoq, qush uyqusi, quyon yurak, arining iniga cho’p suqmoq, biti to’kildi, chivindek joni bor, itdan suyak qarz.

Koreys tili zoonimlar bilan bog’liq frazeologizmlarining o’zbek tili frazeologizmlar bilan o’xshash tomonlarini ko’rish mumkin.

Masalan:

Ikkala xalqda ham quyon obrazi orqali qo’rqoqlik va yuraksizlik ma’nolari tasvirlanadi:

Koreys tilida 토끼 같은 – quyonga o’xshagan odam birikmasi qo’llanilsa, o’zbek tilida “quyon yurak” iborasi keng qo’llaniladi.

Misol: 토끼 같은 마누라와, 꾸익! “여우 같은 새끼들이 기다리고 있다, 꾸익!!!” 이봐, 팬잖아? 라고 말하려던 데르먼의 입이 닫혔다.²⁶

“Quyon yurak xotin va tulkiga o’xshagan bolalarim meni kutyapti !!!”, hoy ahvoling yaxshimi? deb so’ramoqchi bo’lgan Donmanning og’zi yopildi.

Bundan tashqari ikki xalq orasida ahmoqlik va hech narsani bilmaslikni tasvirlashda tovuq obrazining qo’llanilishi o’xshashlik tomonlardan biridir.

Koreys tilida 닭대가리가 – “tovuq kalla” iborasi qo’llansa o’zbek tilida esa “tovuq miya” iborasi qo’llaniladi.

Misol: 너 정말 닭대가리냐? 어제 가르쳐 준 것도 모르게!

Sen tovuq kallamisan? Kechagina o’rgatgan narsalarimni ham bilmaysan!

Shuni alohida ta’kidlash kerakki zoomorfizmlarning tarkibi har bir tilda turlicha bo’ladi, masalan koreys tili tarkibidagi zoomorfizmlar o’zbek tili tarkibidagi o’xshash zoomorfizmlar mazmun jihatdan farq qilishi mumkin. Bunga mazkur tilda so’zlashayotgan xalq madaniyatining o’ziga xos xususiyatlarini sabab sifatida ko’rsatish mumkin. Bunday nomutanosiblik nafaqat geografik joylashuvga qarab, balki shu xalqning tasavvuri, qadriyatlari shu bilan birga xalq og’zaki ijodining o’ziga xos xususiyatlari va boshqa turli sabablar orqali ifodalanadi²⁷. Shuning uchun koreys va o’zbek tillaridagi zoomorfizmlar ishtrok etgan frazeologik birliklar har doim ham bir xil ma’noda qo’llana olinmaydi.

Bunda tashqari zoonimlar ishtrok etgan frazeologizmlarni biz koreys xalq ertaklaridan ham uchratishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida koreys xalq ertaki “Xinbu va Nolbu” dan parchani keltirish mumkin:

²⁶ [세트] 리셋 위저드 (전 11 권/완결)

²⁷ 박선구. 한국어 관용어에서 동물들의 등장 그리고 이 관용어들의 특성

놀부는 호랑이 같이 날뛰며 호령을하였다 – Nolbu yo'lbarsdek sakrab kelib qichqirdi. Biz buni o'zbek tiliga "Nolbu jahl otiga minib o'kirdi" deb tarjima qilishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, koreys tili frazeologiyasi shu qadar boy va xilma-xilki, u koreys tilini o'rganuvchilarda, shuningdek, tarjimonlarda ayrim qiyinchiliklar tug'diradi. Frazeologiyaning tarkibida obrazlilik va stilistik bo'yoqdorligi bilan ajralib turuvchi birliklar ancha ko'p. Hozirgi kunda frazeologik birliklar har hil tillarda turli xil nuqtai nazardan o'rganilib kelinmoqda. Yuqorida frazeologik birliklardagi faqat zoonimik komponentli birliklarning ayrim tomonlari tahlil qilindi xolos. koreys millatiga xos bo'lgan frazeologizmlarning o'rni beqiyos. Negaki, frazeologizmlarda shu xalqning o'ziga xos urf-odat va madaniyati aks etgan bo'ladi. Koreys millati barcha xalqlar kabi o'ziga xos madaniyatga, dinga, mentalitetga ega xalqlardan biridir. Har bir xalq xarakterini ochib beruvchi frazeologizmlar va ularning bir qismini tashkil etuvchi zoonimlar ishtrokidagi frazeologizmlar muayyan millatni o'rganishga katta yordam beradi. Frazeologizmlar qanchalik ko'p o'rganilsa, tahlil va tasnif qilinsa, undagi yangi qirralarning ochilishiga shunchalik imkon tug'iladi.

Shuni ta'kidlash joizki, zoonimlar qaysi tilda o'rganilgan bo'lmasin, alohida bir yangilikni, qiziqarli, muhim xulosalarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar. Yazykoznanie. – M.: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 1998. C. 559.
2. 윤희수. 관용어의 고정된 어순 분석 // 논문집 10. 금오 공과대학, 1989.
3. Proverbs And Saying With Zoonym – Component In The System Of Language And Linguocultural Knowledge. Omer Bicer
4. Zoo-Symbolism and Metaphoric Competence. Antonio Pamies-Bertr'an. University of Granada Spain
5. 최경봉. 국어 관용어 연구. 고려대 석사 학위 논문. 서울: 고려대학교, 1993. - 100 p.
6. 표준국어대사전. 국립국어연구원. - 서울: 독산동아, 1999.
7. 문금현. 국어의 관용 표현 연구. 서울: 태학사. 1999. 7 p.
8. 노수련. 언어 기구에 대하여: 관용구와 어법에 대한 고찰 // 정음 16. 조선어학연구회, 1936. - pp. 7-13.
9. Национально-культурная специфика названий животных в русской и корейской фразеологии © кандидат филологических наук Пак Сон Гу (Республика Корея), 2000 Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. М.: МАКС-Пресс, 2000. Вып. 14. 120 с
10. Национальная специфика фразеологизмов русского и корейского языков © кандидат филологических наук Пак Сон Гу, 1999 Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Ред. В.В. Красных, А.И. Изотов. М.: Диалог-МГУ, 1999. Вып. 7. 136 с.
11. 20 세기 초기 국어의 관용 표현 연구 = A Study on the Idiomatic Expression in Korean in the early 20th Century 주경미, 단국대학교 대학원, [2008] [국내 박사]
12. 동물 속담과 관용어의 의미 학습 = (The) analysis of implicit meanings of proverbs and idioms 최용수, 연세대학교 교육대학원, [2002] [국내 석사]
13. 외국인 학습자를 위한 한국어 관용표현의 교육방안 연구 - 동물명이 포함된 관용표현을 중심으로 - 김동국·이상률 (영산대학교) 2015
14. 한국어와 몽골어의 동물 관련 관용 표현 비교 연구 = Contrastive Study of idiomatic experssion on animals in Korean and Mongolian 특즈생게 첸드ாய시, 창원대학교, [2014] [국내 석사]
15. ‘동물’명 관용 표현에 나타난 개념적 은유 양상 = The Conceptualization of Animals in Korean Idiomatic Expressions 김정아(Kim, Jung-a) (國際言語文學, Vol.32 No.-, [2015])[KCI 등재]
16. National Specific of Idioms in Kazakh and Korean Languages Akerke B. Abagan and Baiyan N. Jubatova, World Academy of Science, Engineering and Technology Vol:7 2013-02-24
17. Система фразеологических соответствий в современном корейском языке Е.А.Колодина Вестн. Междунар. ин-та экономики и лингвистики. Сер. "Восточные языки" : сб. ст. – Иркутск, 2014. – № 6. – С. 76-81.
18. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992.
19. Садыкова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. –Ташкент: Главная редакция УСЭ, 1989.

20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.